

KOREYS TILIDA OLMOSHNING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rabbanoyev Javlon Omonkulovich

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys filologiyasi
kafedrasi stajyor o'qituvchisi,

E-mail: javlonrabbanoev@gmail.com

Mirzayev Shukurullo Abduqodir o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys filologiyasi
kafedrasi assistent o'qituvchisi,
E-mail: shukurullo5599@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Koreys tilida olmoshning turlari va o'ziga xos xususiyatlari hamda olmoshlarni to'g'ri qo'llash qoidalari misollar orqali to'liq yoritib berilgan. Koreys tilida hurmat kategoriysi mavjud bo'lganligi sababli hurmat kategoriyasida olmoshlardan qanday foydalanish kerakligiga ham alohida misollar orqali tushuntirish berilgan.

Tayanch iboralar: olmosh, kishilik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, kontekst, shaxs.

Olmosh ot o'rnni egallab o'sha otni ko'rsatib keladigan so'zlardir. Ya'ni olmosh ko'rsatib keladigan ob'ektni kontekst va holat orqali tushunish kerak bo'ladi.

(1) 가: 저기 모자 있지? 그것 좀 집어 줄래?

나: 김 선생님이 소설을 썼는데, 그것을 쓰는 데 10년이 걸렸단다.

(1 가) dagi “그것” oldida kelgan “모자”ni ko'rsatib kelayotgan so'z bo'lib, (1 나)

dagi “그것” oldida kelgan “소설”ni ko'rsatib kelayotgan so'zdir. Yuqorida ko'rganimizdek kontekst orqali olmosh nimani ko'rsatayotganini bilishimiz mumkin.

(2) 가: 청소는 내가 할 테니까, 너는 설거지 좀 해 주겠니?

나: 이것은 아버지께 드릴 선물이고, 저것은 어머니께 드릴 선물이야.

(2 가) dagi “내(나)” va “너” gapi rayotgan odam bilan eshitayotgan odamni ko'rsatib kelayotgan so'z bo'lib, dialogda gapiryotgan odam bilan eshitayotgan odamning o'rni o'zaro almashadigan bo'lsa ularni ko'rsatib kelayotgan so'zlar ham o'zgaradi. (2 나) dagi “이것” va “저것” ko'rsatayotgan ob'ekt gapi rayotgan odamga nisbatan joylashuviga qarab tanlanadi.

Koreys tilida olmoshning turlari.

Olmoshlar shaxsni ifodalovchi 인칭대명사, ob'ekt, o'rin joy va vaqtini ifodalovchi 지시대명사 ga bo'linadi. 인칭대명사 (kishilik olmoshi) gapirayotgan shaxsni ko'rsatib keladigan 일인칭대명사 (1-shaxs kishilik olmoshi), eshitayotgan shaxsni ko'rsatib keladigan 이인칭대명사 (2-shaxs kishilik olmoshi) va suhbatda qatnashmayotgan 3-shaxsni ko'rsatib keladigan 삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi)ga bo'linadi. 지시대명사 (ko'rsatish olmoshi) ob'yeckni ko'rsatib keladigan 사물대명사 (ob'ekt olmoshi), o'rin-joyni ko'rsatib keladigan 장소대명사 (o'rin joy olmoshi), vaqtini ko'rsatib keladigan 시간대명사 (vaqt olmoshi) larga bo'linadi.

| 대명사의 종류 | 대명사 예 |
|----------------------------------|---|
| 인칭대명사 (kishilik olmoshi) | 일인칭대명사 (1-shaxs kishilik olmoshi) |
| | 이인칭대명사 (2-shaxs kishilik olmoshi) |
| | 삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi) |
| 지시대명사 (ko'rsatish olmoshi) | 사물대명사 (obyekt olmoshi) |
| | 장소대명사 (o'rin-joy olmoshi) |
| | 시간대명사 (vaqt olmoshi) |

일인칭대명사 Birinchi shaxs kishilik olmoshining o'ziga xos xususiyatlari



Koreys tilida hurmat kategoriyasi mavjud. Birinchi shaxs kishilik olmoshi ham gapirayotgan shaxs va eshitayotgan shaxsning o‘zaro munosabatlariga qarab turlicha ishlatiladi. Eshitayotgan shaxsni hurmat qilganda gapirayotgan shaxs “**나**” o‘rniga o‘zini pastroq olishni ifodalaydigan “**저**”dan foydalanadi.

Misol:

4. a) 나는 오늘 대추나무를 심겠어
 - b) 나 오늘 연극 보러 간다
 - c) 나에게 전화 안했니?
 - d) 다음에는 내가 연락할게
-
5. a) 저는 잘 모르는 일입니다.
 - b) 저에게 맡겨 주십시오
 - c) 저 오늘 늦을 거예요
 - d) 저를 아세요?

Birinchi shaxs kishilik olmoshi “**나**” va “**저**” gapirayotgan shaxs va eshitayotgan shaxsning o‘zaro hurmat munosabatiga qarab tanlab ishlatiladi. Gapirayotgan shaxs eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi kichik bo‘lganda yoki ilk bor uchrashgan vaqtida “**저**”dan foydalanib, gapirayotgan shaxs eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, yoshi katta bo‘lganda yoki juda yaqin munosabatda bo‘lganda “**나**” dan foydalanadi. Bundan tashqari birinchi shaxs ko‘plik olmoshida ham bir xil. Gapirayotgan shaxslar eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi kichik bo‘lganda “**저희**” dan foydalanib, gapirayotgan shaxslar eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi katta bo‘lganda yoki juda yaqin munosabatda bo‘lganda “**우리**” dan foydalanadi.

Misol:

- a) 할머니, 저희가 결혼했습니다. (Buvi, biz turmush qurdik)
- b) 애들아, 우리가 결혼했어. (Bolalar, biz turmush qurdik.)

이인칭대명사 Ikkinchi shaxs kishilik olmoshi.

Koreys tilida odatda hurmat qilish kerak bo‘lgan holatda ikkinchi shaxs kishilik olmoshi ishlatilmaydi. Agar eshituvchi shaxs gapiruvchi shaxsga qaraganda lavozimi yoki yoshi katta bo‘lgan holatda ikkinchi shaxs kishilik olmoshidan foydalanilsa behurmatlikni keltirib chiqaradi.

Misol:

(1) 가: 당신, 언제 차 바꾸셨습니까?

나: 당신, 언제 차 바꿨어?

(2) 가: 자네, 언제 미국 돌아가나?

나: 자네야말로 이 회사에서 없어서는 안될 사람이야.

(3) 가: 이제, 네 방 청소는 네가 해라!

나: 영수야, 너 이거 어디서 샀어?

(1가) misoldagidek suhbatdoshni hurmat qilish kerak bo‘lgan vaqtda ikkinchi shaxs kishilik olmoshi “당신”dan foydalanilsa behurmatlikni keltirib chiqaradi. (1나) misolida eri-xotin yoki Yoshi teng bo‘lgan yaqin munosabatdagi kattalar orasida ishlatish mumkin bo‘lgan gap. (2)misoldagi “자네” ikkinchi shaxs kishilik olmoshi Yoshi yoki lavozimi bir xil bo‘lgan yaqin munosabatdagi kattalar orasida yoki o‘zidan kichik bo‘lgan shaxslarga ishlatiladi. (3) misoldagi “너/네” ikkinchi shaxs kishilik olmoshi kattalar kichiklarga yoki lavozimi, yoshi teng bo‘lib yaqin munosabatda bo‘lgan shaxslar o‘zaro ishlatishi mumkin bo‘lgan olmoshdir.

Koreys tilida ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarini hurmatda ishlatish chegaralanganligi sababli ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari o‘rnida o‘rin joy olmoshlaridan foydalaniladi.

Misol:

(1) 가: 어디에서 전화 왔다고 전해 드릴까요?

나: 삼청동에서 전화 왔다고 전해 주세요?

(2) 가: 다과는 이쪽에서 준비하겠습니다, 그쪽에서는 음식을 준비해 주시겠습니까?

(1가) telefon qilgan odamning ismini bilmagan holatda u odamga murojat qilishga mos so‘z yo‘q bo‘lganligi sababli u odam yashayotgan joy yoki ishxonasini so‘rayotgandek murojat qilinsa suhbatdosh o‘zining ishxonasini yoki ismini aytadi.

Koreys tilida suhbatdoshga murojat qilingan vaqtda olmoshlarga qaraganda suhbatdoshning lavozimi, familya yoki ismi ortidan lavozimini qo'shib ishlatish eng maqbuli hisoblanadi.

Misol:

(3) 가: 과장님, 손님 오셨습니다.

나: 김 과장님, 손님 오셨습니다.

다: 김민수 과장님, 손님 오셨습니다.

Maxsus murojat qilishga mos lavozim nomi bo'limgan holatda “선생님” so'zidan foydalilanildi.

Misol:

(4) 가: 김 선생님께서는 언제 오시겠습니까?

나: 이 일은 선생님께서 하시지요.

(4) misoldagi “선생님”¹ so'zi “o'rgatuvchi ustoz” ma'nosidagi so'z emas maxsus lavozim nomi yo'q bo'lgan shaxsga hurmat bilan murojat qiladigan so'z hisoblanadi.

삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi)ga 그, 그녀, 저이, 그이, 이분, 그분, 저분, 누구, 아무, 자기, 당신 olmoshlari kiradi.

삼인칭대명사 ya'ni 3-shaxs kishilik olmoshi 4 ga bo'linadi:

1. 정칭대명사 belgilash olmoshiga 그, 그녀, 저이, 그이, 이분, 그분, 저분 kabi olmoshlar kiradi. Gapiroayotgan va eshitayotgan shaxs kimligini bilib turgan 3-shaxsni ko'rsatib keladi.

Misol: (Yonida turgan odamni suhbatdoshiga tanishtirayotib) 이분이 바로 전에 제가 말씀드린 분입니다.

2. 미지칭대명사 (의문대명사) so'roq olmoshiga 누구 kiradi va ko'rsatilayotgan shaxs kimligini bilmaganda ishlatiladi.

Misol: 한국에 유학가는 학생은 누구예요?

1. ¹ 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호 [1, 375]

3. 부정대명사 bo'lishsizlik olmoshiga 아무 kiradi. 아무 bo'lishsizlik olmoshining 아무나 (kim bo'lsa ham, barcha), 아무도 (hechkim) shakllari bor.

Misol: 이일을 아무나 할 수 있어요.

이일을 아무도 할 수 없어요.

4. 재귀대명사 o'zlik olmoshi o'zidan oldin kelgan ot yoki olmoshni takror ko'rsatib keladigan olmoshdir. 1-shaxsni takror ko'rsatadigan o'zlik olmoshiga 나, 2-shaxsni takror ko'rsatadigan o'zlik olmoshiga 그, 3-shaxsni takror ko'rsatib keladigan o'zlik olmoshiga 저, 자기, 당신, 저희 lar kiradi².

Misol: 나는 어릴 때 나를 일본 사람이라고 믿었다

네가 다시 한국 국적을 갖고 싶으면 그렇게 해, 네 생각대로 해.

그 여자는 자기에게 불리한 말을 했다.

우리 집 막내는 저밖에 몰라.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호
- Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 Toshkent – 2007 Kim Mun Uk
- Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 강의안 Toshkent – 2007 Kim Chun Shik

2. ² 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호 [2, 379]